



SOG‘LIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA SOHASIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**JAMOAT SALOMATLIGI VA MEHNAT
XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH
BO‘YICHA MUTAXASSISLAR**



“Jamoat salomatligi va mehnat xavfsizligini ta’minlash bo’yicha mutaxassislar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Sog’liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Jamoat salomatligi va mehnat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mutaxassislar

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0057



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Ushbu kasbiy standart Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi, Mehnat salomatligi va xavfsizligi nazoratchisi hamda Sog'liqni saqlash inspektori mutaxassislarning kasbiy faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, mahorat va mas'uliyat darajasini belgilaydi hamda ularning malakasini baholash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

antropometriya – inson tanasining jismoniy tuzilishi xususiyatlarini o'lchash usullari tizimi;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

epidemiya qarshi chora-tadbirlar – yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish uchun amalga oshiriladigan profilaktika ishlari;

gigiyena – inson salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olish uchun amalga oshiriladigan sanitariya va sog'lom turmush tarziga oid chora-tadbirlar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

ish qobiliyati – insonning talab etiladigan vaqt oralig'ida topshirilgan sifatida ishning aniq miqdorini bajarish qobiliyatini tavsiflaydigan organizmning fiziologik va psixologik funksiyalari imkoniyatlari bilan belgilanadigan insonning holati;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb kasalligi – ushbu kasb uchun xos bo'lgan hamda ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining zararli va xavfli omillari ta'siri natijasida xodim chalingan kasallik;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat sharoitlari – mehnatni amalga oshirish chog'idagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig'indisi;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnatni muhofaza qilish – mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

og'ir mehnat sharoitlari – mehnat faoliyati davrida insonning organizmida kasb kasalliklari kelib chiqishiga, yengil, o'rta og'ir va og'ir darajadagi kasbiy ish qobiliyatini yo'qotishiga olib keladigan mehnat sharoiti;

sanitariya – atrof-muhitni tozalikda ushlab, yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi;

shaxsiy himoya vositalari – xodimga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta'sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoyalani uchun foydalaniladigan texnik vositalar va boshqa vositalar;

tibbiy-mehnat ekspertizasi – fuqarolarning mehnatga layoqatini, nogironlik guruhini, uning sabablari va muddatlarini aniqlash, shuningdek, ularni tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish choralarini belgilash jarayoni;

xavfli ishlab chiqarish omili – ta’siri xodimning jarohat olishiga sabab bo’lishi mumkin bo’lgan ishlab chiqarish omili. Miqdoriy tavsifiga va amal qilishining davomiyligiga bog’liq ravishda ayrim zararli ishlab chiqarish omillari xavfli bo’lishi mumkin;

zararli ishlab chiqarish omili – ta’siri xodimning kasb kasalligiga chalinishiga olib kelishi mumkin bo’lgan ishlab chiqarish omili.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O’zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgust “Fuqarolar sog’lig’ini saqlash to’g’risida” gi 265-I-son Qonuni;

O’zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-avgust “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtalik to’g’risida” gi O’RQ-393-sonli Qonuni;

O’zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabr “Mehnatni muhofaza qilish to’g’risida” gi O’RQ-410-son Qonuni;

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-aprel “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi PQ-215-sonli Qarori.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr “O’zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-345-sonli qarori;

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-fevral “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi 62-son qarori;

O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasining 2024-yil 22-fevral “Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og’irligi va tig’izligi ko’rsatkichlari bo’yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifini (0069-24-son SanQvaN) tasdiqlash to’g’risida”gi 8-sonli qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo’llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

SES – Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati;

TVI – Tana Vazni Indeksi;

EKG – Elektrokardiogramma;

GPS – Global Positioning System;

TIEK – Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi;

SanQvaN (SanPiN) – Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari;

CPR – Yurak-o’pka reanimatsiyasi;

ISO – Xalqaro standartlashtirish tashkiloti;

GOST – Davlat standarti;

LOTO – Qulflash va markirovka qilish tizimi;

MS – Microsoft;

PH – Vodorod ko’rsatkichi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Jamoat salomatligi va mehnat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mutaxassislar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olish, mehnat xavfsizligi standartlarini joriy etish hamda fuqarolarning mehnatga layoqatini tibbiy baholash jarayonlarida sifatli xizmat ko'rsatish va davlat nazoratini amalga oshirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	R seksiyasi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish; 86 Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat; 86.9 Sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat; 86.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat; 86.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Ushbu kasbiy standart sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yurituvchi tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi, mehnat salomatligi va xavfsizligi nazoratchisi hamda sog'liqni saqlash inspektori uchun yagona malaka talablarini belgilab beradi. Mazkur hujjat mutaxassisning tibbiy-mehnat ekspertizasi hujjatlarini yuritish va ko'rik jarayonlariga ko'maklashish, ishlab chiqarishdagi xavfli omillarni aniqlash va baxtsiz hodisalarning oldini olish, obyektlarda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish hamda epidemiologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatini to'liq qamrab oladi va ushbu mutaxassislarni ishga qabul qilish, faoliyatini baholash hamda o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		32570013 Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi	4
		32570005 Mehnat salomatligi va xavfsizligi nazoratchisi	5
		32570012 Sog'liqni saqlash inspektori	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	32570013 Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi	A1.4	Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza hujjatlarini yuritish va elektron platformada ishlash	A1.01.4	TIEK ko'rigiga yo'llangan shaxslarning tibbiy yo'llanmalari va shaxsiy hujjatlarini qabul qilish hamda tekshirish
				A1.02.4	Murojaatchilar ma'lumotlarini "Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza" elektron axborot tizimiga va jurnallarga kiritish
				A1.03.4	Nogironlikni belgilash, reabilitatsiya dasturlari va protez-ortopediya buyumlariga muhtojlik bo'yicha xulosalarni rasmiylashtirish
				A1.04.4	TIEK hujjatlar yig'majildlarini shakllantirish, arxivlash va "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan hamkorlik qilish
		A2.4	Tibbiy-ijtimoiy ko'rik jarayonini tashkillashtirish va ekspertlarga ko'maklashish	A2.01.4	Ko'rik xonasini sanitariya talablariga moslash va tibbiy o'lchov asboblari ishga tayyorlash
				A2.02.4	Ko'rikka kelgan shaxslarning antropometrik va funksional ko'rsatkichlarini o'lchash
				A2.03.4	Harakatlanishi cheklangan va nogironligi bor shaxslarga ko'rikdan o'tish jarayonida jismoniy yordam ko'rsatish
				A2.04.4	Komissiya yig'ilishida shifokor-ekspertlarga assistentlik qilish va ekspertiza xulosalarini qayd etib borish
		A3.4	Tibbiy xavfsizlikni ta'minlash va birinchi yordam ko'rsatish	A3.01.4	Ko'rik jarayonida fuqarolarning ahvoli og'irlashganda shifokorgacha bo'lgan birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish
				A3.02.4	Yuqumli kasalliklar profilaktikasi uchun dezinfeksiya va sterilizatsiya qoidalariga rioya qilish
				A3.03.4	Tibbiy chiqindilar va ishlatilgan materiallarni xavfsiz utilitatsiya qilishni tashkil etish
		2	32570005 Mehnat salomatligi va xavfsizligi nazoratchisi	B1.5	Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini tashkil etish va rejalashtirish
B1.02.5	Kasbiy xavflarni identifikatsiya qilish va ularni baholash xaritasini yuritish				

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari			
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi		
				B1.03.5	Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish jarayonini tashkillashtirish		
				B1.04.5	Mehnat muhofazasi bo'yicha yillik chora-tadbirlar rejasini va moliyaviy smetani ishlab chiqishda ishtirok etish		
		B2.5	Ishlab chiqarish jarayonlarida operativ nazorat o'tkazish	B2.01.5	Bo'limlar va uchastkalarda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi bo'yicha davriy tekshiruvlarni o'tkazish		
				B2.02.5	Xodimlarning maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishi hamda ulardan to'g'ri foydalanishini nazorat qilish		
				B2.03.5	Uskunalar, mexanizmlar va himoya to'siqlarining texnik sozligini vizual va instrumental tekshirish		
				B2.04.5	Aniqlangan qoidabuzarliklar bo'yicha dalolatnomalar tuzish va ishlarni to'xtatib turish bo'yicha ko'rsatma berish		
		B3.5	Profilaktika ishlari va baxtsiz hodisalarni tekshirish	B3.01.5	Xodimlar bilan barcha turdagi xavfsizlik yo'riqnomalarini o'tkazish va rasmiylashtirish		
				B3.02.5	Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini xizmat tekshiruvdan o'tkazishda ishtirok etish		
				B3.03.5	Majburiy tibbiy ko'riklarning o'z vaqtida o'tkazilishini nazorat qilish		
				B3.04.5	Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish rejasini ishlab chiqish va mashg'ulotlar o'tkazish		
		3	32570012 Sog'liqni saqlash inspektori	D1.5	Nazorat obyektlarida davlat sanitariya-epidemiologik nazoratini amalga oshirish	D1.01.5	Obyektlarda Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishini rejali va rejadan tashqari tekshirish
						D1.02.5	Obyektlarning sanitariya holatini vizual baholash va xodimlarning tibbiy ko'rik daftarchalarini tekshirish
D1.03.5	Atrof-muhit omillarini instrumental o'lchash va laboratoriya tahlili uchun namunalar olish						

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
				D1.04.5	Yangi qurilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan obyektlarning loyiha hujjatlarini sanitariya talablariga mosligini ekspertiza qilishda qatnashish
		D2.5	Epidemiologik monitoring va yuqumli kasalliklar profilaktikasi	D2.01.5	Yuqumli va parazitlar kasalliklar aniqlangan o'choqlarda epidemiologik surishtiruv o'tkazish va shoshilinch xabarnomalar bilan ishlash
				D2.02.5	Yuqumli kasalliklar o'chog'ida dezinfeksiya, dezinfeksiya va deratizatsiya tadbirlarining sifati va samaradorligini nazorat qilish
				D2.03.5	Milliy emlash kalendariga asosan profilaktik emlash jarayonlarini va "Sovuqlik zanjiri" tizimiga rioya etilishini monitoring qilish
		D3.5	Ma'muriy amaliyot va huquqiy choralar ko'rish	D3.01.5	Tekshiruv natijalari bo'yicha sanitariya-epidemiologik tekshiruv dalolatnomalarini tuzish
				D3.02.5	Aniqlangan qonunbuzarliklar yuzasidan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirish va jarima solish to'g'risida qaror loyihasini tayyorlash
				D3.03.5	Aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'diruvchi holatlar aniqlanganda obyekt faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish bo'yicha ko'rsatma berish
				D3.04.5	Jismoniy va yuridik shaxslarning sanitariya masalalari bo'yicha shikoyat va arizalarini ko'rib chiqish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi	
Mashg'ulot nomining kodi:	32570	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Korrupsiya holatlariga murossasiz bo'lish va qonun ustuvorligini ta'minlash, vizual ko'rik davomida mayda kamchiliklar va yashirin qoidabuzarliklarni tez payqash qobiliyati, tekshiriluvchi subyektlar bilan ziddiyatsiz, bosiq va rasmiy muloqot qila olish, laboratoriya tahlillari va o'lchov natijalarini to'g'ri tahlil qilib xulosa chiqarish, bosim ostida va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	Umumiy amaliyot shifokori
	8	Tibbiy-mehnat ekspertizasi bo'yicha bosh ekspert
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.4 - Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza hujjatlarini yuritish va elektron platformada ishlash	A1.01.4 - TIEK ko'rigiga yo'llangan shaxslarning tibbiy yo'llanmalari va shaxsiy hujjatlarini qabul qilish hamda tekshirish.	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Murojaat qiluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjati bilan taqdim etilgan tibbiy yo'llanmadagi ma'lumotlarni solishtirish orqali shaxsni identifikatsiya qilish
		2. Tibbiy yo'llanma va kasallik tarixi ko'chirmalarining belgilangan tartibda to'ldirilganligi, unda barcha zarur muhr va imzolar mavjudligini vizual ko'zdan kechirish
		3. Taqdim etilgan hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan taqdirda, fuqaroga xatoliklarni tushuntirish va hujjatlarni qayta rasmiylashtirish uchun tibbiyot muassasasiga qaytarish
		4. Qabul qilingan va talabga javob beradigan hujjatlarni navbat tartibi bo'yicha saralash hamda ro'yxatga olish jarayoni uchun tayyorlash

		Ko'nikmalar:
		Hujjatlardagi matn va fotosuratlarini solishtirib, shaxsni aniq vizual identifikatsiya qila olish
Tibbiy hujjatlardagi yozuvlarni o'qish, shtamp va muhrlarning haqiqiylikini hamda sanalarni diqqat bilan tekshirish		
Fuqarolar bilan xushmuomala bo'lish, yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni bosiqlik bilan tushuntirish va nizoli vaziyatlarning oldini olish		
Katta hajmdagi hujjatlar to'plamini tartibga solish va birlamchi saralash		
Bilimlar:		
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari va amaldagi nizomlar		
Tibbiy hujjatlarning tasdiqlangan shakllari va ularni to'ldirishga qo'yiladigan davlat standartlari		
Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi, tibbiy etika va deontologiya qoidalari		
"Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun talablari va maxfiylikni saqlash tamoyillari		
A1.02.4 - Murojaatchilar ma'lumotlarini Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza elektron axborot tizimiga va jurnallarga kiritish.	Mehnat harakatlari:	
	Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza yagona elektron axborot tizimiga shaxsiy identifikatsiya vositalari orqali kirish	
	Murojaatchining pasport ma'lumotlari, klinik tashxisi va mehnat faoliyati tarixini raqamli bazaga kiritish	
	Qog'oz shaklidagi tibbiy xulosa va yo'llanmalarni skanerlash hamda elektron bazadagi shaxsiy sahifaga birlashtirish	
	Murojaat kelib tushgan vaqt va sana bo'yicha maxsus ro'yxatga olish kitobida qayd etish	
	Ko'nikmalar:	
	Kompyuterdan tez va xatosiz foydalanish	
	Skaner, printer va boshqa ofis texnikalaridan professional foydalanish	
	Kiritilgan raqamli ma'lumotlarning aniqligini tekshirish va tahrirlash	
	Elektron raqamli imzo kalitlari bilan ishlash	
	Bilimlar:	
	Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza va Inson elektron platformalarining ishlash tamoyillari	
	Axborot xavfsizligi va login-parollar maxfiylikni saqlash talablari	
	Tibbiy terminologiya va kasalliklar xalqaro tasnifi kodlari	
Elektron hujjat aylanishi va arxivlash tartibi		

A1.03.4 - Nogironlikni belgilash, reabilitatsiya dasturlari va protez- ortopediya buyumlariga muhtojlik bo'yicha xulosalarni rasmiylashtirish	Mehnat harakatlari:
	1. Elektron tizimdan tayyor bo'lgan nogironlik ma'lumotnomasi va reabilitatsiya dasturini qog'ozga chop etish
	2. Rasmiylashtirilgan hujjatlarni komissiya raisi imzosi va muhr bilan tasdiqlatish
	3. Fuqaroga tibbiy xulosani topshirish va maxsus jurnalga imzo qo'ydirib olish
	Ko'nikmalar:
	Hujjatlarni tartibli va davlat tilida bexato rasmiylashtirish
	Chop etilgan ma'lumotlarning sifati va o'qishga yaroqliligini tekshirish
	Fuqaroga tayinlangan imtiyoz va tavsiyalarni tushuntirib berish
	Bilimlar:
	Nogironlik guruhleri va sabablari klassifikatsiyasi
	Reabilitatsiya texnik vositalari va protez buyumlari ro'yxati
	Rasmiy ish yuritish va hujjatlarni rasmiylashtirish davlat standartlari
	Tibbiy xulosalar va ma'lumotnomalar berish tartibi
	Mehnat harakatlari:
	1. Ko'rikdan o'tgan shaxslarning hujjatlarini tartiblash va yig'majildga tikish
2. Hujjatlarni saqlash muddatlari va turlari bo'yicha saralash hamda arxiv qutilariga joylashtirish	
3. Inson ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlarining so'rovlariga asosan ma'lumot taqdim etish	
Ko'nikmalar:	
Hujjatlarni tizimli saqlash va kataloglashtirish	
Arxiv fondidan kerakli ma'lumotni tezkor qidirib topish	
Idoralararo elektron va yozma ma'lumot almashish	
Bilimlar:	
Idoraviy arxiv ishini yuritish bo'yicha yo'riqnomalar	
Hujjatlar nomenklaturasi va ularni saqlash muddatlari me'yorlari	
Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi hamkorlik tartibi	
Mas'uliyat va mustaqillik:	
1. Hujjatlar va yig'majildlarning jismoniy butligini ta'minlash	
2. Arxivdagi shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash	
3. Hamkor tashkilotlarga taqdim etilayotgan ma'lumotlarning to'g'riligi	
4. Hujjatlarni saralash va joylashtirish ishlarini mustaqil bajarish	
5. Arxiv fondini tartibga solish bo'yicha qaror qabul qilish	
6. Belgilangan yo'riqnoma asosida so'rovlarga javob tayyorlash	

<p>A2.4 - Tibbiy-ijtimoiy ko'rik jarayonini tashkillash-tirish va ekspertlarga ko'maklashish</p>	<p>A2.01.4 - Ko'rik xonasini sanitariya talablariga moslash va tibbiy o'lchov asboblari ishga tayyorlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p>
		<p>1. Ko'rik xonasida havo almashinuvi va yoritish darajasini sozlash</p>
		<p>2. Tarozi, bo'y o'lchagich va tonometrning texnik sozligini tekshirish</p>
		<p>3. Bir martalik tibbiy choyshablar va shaxsiy himoya vositalarini tayyorlash</p>
		<p>4. Ish joyi yuzalarini dezinfeksiya eritmalari bilan artish</p>
		<p>Ko'nikmalar:</p>
		<p>O'lchov asboblari kalibrlash va ishga tayyorlash</p>
		<p>Ish joyini ergonomik va tartibli tashkil etish</p>
		<p>Sanitariya tozalov ishlarini sifatli bajarish</p>
		<p>Bilimlar:</p>
		<p>Tibbiyot muassasalarida sanitariya qoidalari va normalari</p>
		<p>Tibbiy o'lchov asboblari ishlab chiqarish prinsipi va ekspluatatsiya qoidalari</p>
		<p>Aseptika va antiseptika talablari</p>
	<p>Mehnat xavfsizligi va elektr xavfsizligi asoslari</p>	
	<p>A2.02.4 - Ko'rikka kelgan shaxslarning antropometrik va funksional ko'rsatkichlarini o'lchash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p>
		<p>1. Bemorni tibbiy tarozida tortish va maxsus moslamada bo'yini o'lchash</p>
		<p>2. Arterial qon bosimi va puls chastotasini aniqlash</p>
		<p>3. Olingan natijalarni ovoz chiqarib aytish va tibbiy bayonnomaga qayd etish</p>
		<p>4. Tana massasi indeksini hisoblash</p>
		<p>Ko'nikmalar:</p>
		<p>Mexanik yoki elektron tonometr hamda tibbiy tarozidan to'g'ri foydalanish</p>
		<p>O'lchov natijalarini tibbiy hujjatlarga aniq va tushunarli yozish</p>
		<p>Bemor bilan psixologik aloqa o'rnatish va tinchlantirish</p>
		<p>Bilimlar:</p>
		<p>Antropometrik o'lchovlarni o'tkazish usullari va qoidalari</p>
		<p>Arterial qon bosimi va pulsning yoshga doir fiziologik me'yorlari</p>
		<p>Tibbiy etika va deontologiya tamoyillari</p>
<p>A2.03.4 - Harakatlanishi cheklangan va nogironligi bor shaxslarga ko'rikdan o'tish jarayonida jismoniy yordam ko'rsatish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p>	
	<p>1. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxsga kiyinish va yechinishda ko'maklashish</p>	
	<p>2. Bemorni nogironlik aravachasidan ko'rik kushkasiga yoki taroziga o'tkazishda ushlab turish</p>	
	<p>3. Xona bo'ylab harakatlanish jarayonida bemor xavfsizligini ta'minlash</p>	
	<p>Ko'nikmalar:</p>	
	<p>Jismoniy kuchni to'g'ri taqsimlash va harakatlarni muvofiqlashtirish</p>	
	<p>Yordamchi vositalardan samarali foydalanish</p>	

		Bemorga nisbatan ehtiyotkorlik va sabr-toqat bilan muomala qilish
		Bilimlar:
		Nogironligi bo'lgan shaxslar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari
		Bemorlarni transportirovka qilish va ko'tarish xavfsizlik qoidalari
		Mehnat muhofazasi va og'ir yuk ko'tarish me'yorlari
	A2.04.4 - Komissiya yig'ilishida shifokor-ekspertlarga assistentlik qilish va ekspertiza xulosalarini qayd etib borish	Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor-ekspertlarning og'zaki ko'rsatmalariga asosan tibbiy bayonnomalarni to'ldirish
		2. Kerakli rentgen suratlari, tahlil natijalari va ambulator kartalarni ekspertlarga taqdim etib turish
		3. Ekspertiza jarayoni reglamentiga rioya qilinishini kuzatib borish
		Ko'nikmalar:
		Diktovka asosida matnni tez, xatosiz va husnixat bilan yozish
		Tibbiy jamoada hamjihatlikda ishlash
		Diqqatni jamlash va ma'lumotlarni aniq eslab qolish
		Bilimlar:
		Tibbiy hujjatlarni yuritish bo'yicha yo'riqnomalar
		Tibbiy terminologiya, lotin tili imlosi va qisqartmalar
		Kasalliklar xalqaro tasnifi kodlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ko'rik xonasining tozaligi, tibbiy asboblarning dezinfeksiya qilinganligi va ishga yaroqliligi uchun javobgarlik.
		2. O'tkazilgan antropometrik va funksional o'lchov natijalarining haqqoniyligi uchun mas'uliyat.
		3. Harakatlanishi cheklangan va nogironligi bor shaxslarga kiyinish-yechinish hamda harakatlanishda yordam berish jarayonida ularning jismoniy xavfsizligi ta'minlash.
		4. Komissiya yig'ilishi davomida shifokor-ekspertlarning xulosalari va qarorlarini bayonnomaga to'g'ri, to'liq va xatosiz qayd etish uchun shaxsan javobgarlik.
		5. Ko'rik xonasini jihozlash, asboblarni joylashtirish va ish kuniga tayyorgarlik ko'rish tartibini belgilashda mustaqillik.
		6. Bemorning jismoniy holatidan kelib chiqib, o'lchovlarni o'tkazish usulini tanlashda mustaqillik.
		7. Bemorlarga jismoniy yordam ko'rsatishda vaziyatni baholashda mustaqillik.
		8. Tibbiy asboblarda nosozlik aniqlanganda, ularni ishlatmaslik va ta'mirlashga berish bo'yicha qaror qabul qilish.
		Mehnat harakatlari:
		1. Fuqaroning ahvoli keskin o'zgarganda ish jarayoni darhol to'xtatish

A3.4 - Tibbiy xavfsizlikni ta'minlash va birinchi yordam ko'rsatish	A3.01.4 - Ko'rik jarayonida fuqarolarning ahvoli og'irlashganda shifokorgacha bo'lgan birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish	2. Birlamchi ko'rikni 30 soniya ichida o'tkazish
		3. Tez tibbiy yordam yoki muassasa shifokori yetib kelguniga qadar hayotiy ko'rsatkichlar barqarorlashtirish
		4. Bajarilgan muolajalar haqida shifokorga aniq axborot berish
		Ko'nikmalar:
		Arterial qon bosimi va pulsni to'g'ri o'lchash
		Sun'iy nafas berish va yurak massajini bajarish
		Jabrlanuvchiga xavfsiz holat berish
		Bilimlar:
		Shoshilinch holatlar belgilari
		Birlamchi yurak-o'pka reanimatsiyasi (CPR) qoidalari
	Tana jarohatlarida immobilizatsiya qilish usullari	
	A3.02.4 - Yuqumli kasalliklar profilaktikasi uchun dezinfeksiya va sterilizatsiya qoidalariga rioya qilish	Mehnat harakatlari:
		Ko'rik xonasi va jihozlar belgilangan grafik asosida dezinfeksiya qilish
		Ko'p marotaba ishlatiladigan asboblarni sterilizatsiya oldi tozalash bosqichidan to'liq o'tkazish
		Shaxsiy himoya vositalari o'z vaqtida almashtirish
		Sanitariya me'yorlari talablariga qat'iy rioya qilish
		Ko'nikmalar:
		Dezinfeksiyalovchi eritmalarni to'g'ri tayyorlash va qo'llash
		Kvars lampalari va havo tozalagichlardan xavfsiz foydalanish
		Tozalov ishlarini sifatli amalga oshirish
		Bilimlar:
		Yuqumli kasalliklarning yuqish yo'llari va oldini olish choralari
		Dezinfeksiya eritmalarini tayyorlash konsentratsiyasi va saqlash muddati
		Aseptika va antiseptika qoidalari
	A3.03.4 - Tibbiy chiqindilar va ishlatilgan materiallarni xavfsiz utilizatsiya qilishni tashkil etish	Mehnat harakatlari:
		Chiqindilar xavflilik darajasiga qarab saralash
		O'tkir va sanchiluvchi buyumlar maxsus qattiq qutilarga tashlash
Chiqindi qoplari to'lgach, germetik yopish va markirovka qilish		
Atrof-muhit va xodimlar xavfsizligini to'liq ta'minlash		
Ko'nikmalar:		
Chiqindilarni to'g'ri konteynerlarga joylashtirish		
Xavfsiz utilizatsiya qutilarini yig'ish va muhrlash		
Ishlatilgan materiallar bilan ishlaganda jarohatlanishdan saqlanish texnikasi		
Bilimlar:		
Tibbiy chiqindilarni saralash va utilizatsiya qilish bo'yicha amaldagi SanPiN qoidalari		

		Chiqindi sinflarining ranglar bo'yicha ajratilishi
		Biologik xavfli chiqindilar bilan ishlashda ehtiyot choralari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Favqulodda vaziyatlarda jabrlanuvchiga o'z vaqtida va to'g'ri birinchi tibbiy yordam ko'rsatilishi, shifokor kelguniga qadar uning hayotiy ko'rsatkichlarini imkon darajasida saqlab turish uchun javobgarlik.
		2. Dezinfeksiya va sterilizatsiya qoidalarining buzilishi oqibatida xodimlar yoki fuqarolar orasida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish uchun shaxsiy javobgarlik.
		3. Tibbiy chiqindilarning noto'g'ri utilizatsiya qilinishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi yoki boshqa shaxslarning jarohatlanishi yuzasidan javobgarlik.
		4. Tibbiy asbob-uskunalar, dori qutichasi va sarflov materiallarining maqsadli ishlatilishi hamda saqlanishi uchun mas'uliyat.
		5. Tez tibbiy yordam xizmati yoki rahbariyatga vaziyat haqida noto'g'ri yoki kechikib xabar berish oqibatlari uchun mas'uliyat.
		6. Fuqaroning ahvoli og'irlashganda, bevosita rahbarning buyrug'ini kutmasdan, mustaqil ravishda ish jarayonini to'xtatish va birinchi yordam ko'rsatish.
		7. Vaziyatni mustaqil baholagan holda, zudlik bilan Tez tibbiy yordam yoki Favqulodda vaziyatlar xizmatlarini chaqirish bo'yicha mustaqillik.
		8. Dezinfeksiya vositalarining yaroqliligini tekshirish va yaroqsiz deb topilgan vositalarni mustaqil ravishda ishlatishdan chiqarish.
		9. Tibbiy muolajalarni faqat o'z vakolati va bilim darajasi doirasida amalga oshirish.
	Texnik va/yoki texnologik talab	Tonometr, fonendoskop, termometr, pulsoksimetr, glyukometr, tibbiy tarozi, bo'y o'lchagich, ambu qopi, kislorod yostiqchalari, portativ kislorod ballonlari, Esmarch jguti, immobilizatsiya shinalari, tibbiy nosilka, nogironlar aravachasi, bakteritsid nurlantirgichlar, kvars lampalari, havo retsirkulyatorlari, avtoklav, quruq issiqlik shkafi, o'tkir va sanchiluvchi chiqindilar qutilari, maxsus chiqindi konteynerlari, germetik qoplar, shaxsiy kompyuter, noutbuk, printer, skaner, nusxa ko'chirish uskunasi, MS Word dasturi, MS Excel dasturi, maxsus tibbiy axborot tizimlari, internet tarmog'i, maxsus tibbiy kiyim, xalat, tibbiy niqoblar, respiratorlar, steril qo'lqoplar, nosteril qo'lqoplar, himoya ko'zoynagi.

Kasbning nomi:	Mehnat salomatligi va xavfsizligi nazoratchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	32570	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Ishlab chiqarish jarayonidagi xavfli omillarni va yashirin kamchiliklarni tez payqash qobiliyati, xavfsizlik qoidalari buzilganda murosasizlik va qat'iyatlilik, turli toifadagi xodimlar va rahbarlar bilan ziddiyatsiz muloqot o'rnatish hamda talabchanlik, texnik va texnologik jarayonlarni tahlil qilish hamda xavflarni oldindan prognoz qilish, favqulodda vaziyatlarda vahimaga tushmasdan sovuqqonlik bilan to'g'ri qaror qabul qilish, baxtsiz hodisalarni tekshirishda xolislik va adolatparvarlik.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Mehnat salomatligi va xavfsizligi texnigi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5 - Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini tashkil etish va rejalashtirish	B1.01.5 - Muassasada mehnatni muhofaza qilish standartlarini joriy etish va hujjatlashtirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilishga oid qonunchiligi va xalqaro standartlardagi o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish va tahlil qilish
		2. Muassasaning Mehnatni muhofaza qilish standartlarini ishlab chiqish va rahbariyatga tasdiqlatish
		3. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi bo'yicha ichki standartlar, nizomlar va yo'riqnomalarni tayyorlash
		4. Xalqaro standartlarni muassasa faoliyatiga moslashtirish va joriy etish rejasini tuzish
		5. Mehnat muhofazasi hujjatlarining yagona reyestri va arxivini shakllantirish hamda yuritish
6. Muassasa bo'lim rahbarlari va xodimlarini qabul qilingan yangi standartlar bilan tanishtirish		

		7. Mavjud ichki me'yoriy hujjatlarni davriy ravishda qayta ko'rib chiqish va yangilash
		Ko'nikmalar:
		Murakkab texnik va yuridik matnlarni savodli, aniq va tushunarli tilda tuza olish
		"Lex.uz", "Norma" huquqiy-axborot tizimlaridan erkin foydalanish
		Qonunchilikdagi umumiy talablarni muassasaning o'ziga xos sharoitiga to'g'ri tatbiq etish
		MS Word, PowerPoint va elektron hujjat aylanish tizimlarida ishlash
		Rahbariyatga xavfsizlik qoidalarining muhimligini asoslab berish va jamoaga yetkazish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari
		ISO 45001:2018 Mehnat salomatligi va xavfsizligi menejment tizimlari
		O'zbekiston Davlat standartlari tizimi
		Tashkilotda ish yuritish qoidalari va me'yoriy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi
		Muassasaning texnologik jarayonlari va boshqaruv iyerarxiyasi
		Hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini tekshirish tamoyillari
	B1.02.5 - Kasbiy xavflarni identifikatsiya qilish va ularni baholash xaritasini yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Muntazam ravishda barcha ish joylari, texnologik jarayonlar va uskunalarni ko'zdan kechirib, mavjud xavflarni aniqlash
		2. Xodimlar bilan suhbatlar o'tkazib, ish jarayonidagi yashirin xavflar va qiyinchiliklar haqida ma'lumot to'plash
		3. Aniqlangan har bir xavfning yuzaga kelish ehtimolligi va uning oqibatlari og'irligini maxsus metodikalar yordamida hisoblash
		4. Muassasaning yagona "Xavflarni baholash va boshqarish xaritasi"ni tuzish va doimiy yangilab borish
		5. Xavf darajasini pasaytirish bo'yicha "Xavfsizlik choralari iyerarxiyasi"ga asoslangan reja tuzish
		6. Yangi uskunarlar o'rnatilganda, texnologiya o'zgarganda yoki baxtsiz hodisa yuz berganda xavflarni qaytadan baholash
		Ko'nikmalar:
		Ish jarayonidagi oddiy ko'z bilan ilg'ash qiyin bo'lgan xavfli detallarni payqay olish
		Xavfni prognoz qilish va matematik hisob-kitoblarni amalga oshirish

		Ishchilar va ustalari bilan til topishib, real vaziyatni o'rganish
		Murakkab jadvallar va xaritalarni barcha tushunadigan sodda tilda va formatda tuzish
		Minglab xavflar orasidan eng muhim va tezkor yechim talab qiladiganlarini ajratib olish
		Bilimlar:
		Xavflarni baholashning xalqaro va milliy usullari
		Ishlab chiqarishdagi zararli va xavfli omillarning klassifikatsiyasi
		Ish joyidagi omillarning ruxsat etilgan chegaraviy miqdorlari
		Xavflarni identifikatsiya qilish va xavflarni baholash talablari
		O'xshash muassasalarda ko'p uchraydigan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari statistikasi
	B1.03.5 - Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish jarayonini tashkillashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Muassasadagi barcha ish o'rinlarini to'liq xatlovdan o'tkazish va attestatsiya qilinishi lozim bo'lgan ish o'rinlari ro'yxatini shakllantirish
		2. Maxsus litsenziyaga ega bo'lgan laboratoriya bilan shartnoma tuzish va o'lchov ishlarini o'tkazish grafigini tasdiqlash
		3. Attestatsiya komissiyasi tarkibida ish joylaridagi zararli va xavfli omillarni instrumental o'lchash jarayonlarida bevosita ishtirok etish
		4. Attestatsiya natijalariga ko'ra "Ish o'rni xaritasi"ni rasmiylashtirish va zararli sharoitlar uchun imtiyozlar belgilanishini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Attestatsiya o'tkazuvchi tashkilot faoliyatini va ular taqdim etgan o'lchov bayonnomalarining to'g'riligini tahlil qilish
		Ish vaqti xronometrajini o'tkazish va xodimning zararli omillar ta'sirida bo'lish vaqtini aniq hisoblab chiqish
		Attestatsiya natijalari asosida mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish
		Attestatsiya hujjatlari to'plamini arxivlash va davlat ekspertiza organlariga taqdim etishga tayyorlash
		Bilimlar:
		Mehnat sharoitlarining gigiyenik klassifikatsiyasi mezonlari
		Ishlab chiqarish muhitidagi zararli omillar va ularni o'lchash davriyligi
		Zararli mehnat sharoitida ishlovchi xodimlar uchun qonunchilikda belgilangan kafolatlar, kompensatsiyalar va imtiyozli pensiya ta'minoti turlari

	B1.04.5 - Mehnat muhofazasi bo'yicha yillik chora-tadbirlar rejasini va moliyaviy smetani ishlab chiqishda ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Muassasa bo'limlaridan kelgusi yil uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha taklif va talabnomalarni yig'ish
		2. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yillik "Kompleks chora-tadbirlar rejasini" loyahasini ishlab chiqish va kasaba uyushmasi bilan kelishish
		3. Rejalashtirilgan tadbirlar uchun talab etiladigan moliyaviy mablag'lar smetasini hisoblab chiqish
		4. Tasdiqlangan reja va budjetning ijrosini har chorakda monitoring qilish va mablag'larning maqsadli sarflanishini nazoratga olish
		Ko'nikmalar:
		Statistik ma'lumotlarga asoslanib, kelgusi davr uchun zarur bo'ladigan himoya vositalari hajmini to'g'ri prognoz qilish
		Bozor narxlarini tahlil qilish va sifatli hamda hamyonbop himoya vositalarini tanlashda ishtirok etish
		Elektron jadvallar yordamida murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish va moliyaviy jadvallar tuzish
		Rahbariyat oldida xavfsizlik uchun so'ralayotgan mablag'larning zarurligini mantiqiy va iqtisodiy jihatdan asoslab berish
	Bilimlar:	
	Mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish va moliyalashtirish bo'yicha qonunchilik talablari	
	Xodimlarga maxsus kiyim, poyabzal va boshqa mahsulotlarni bepul berishning amaldagi me'yorlari	
	Muassasa budjetini shakllantirish asoslari va xarajatlar moddalarining tasnifi	
	Mehnat muhofazasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash usullari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ishlab chiqilgan ichki me'yoriy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro standartlar talablariga to'liq mos kelishi uchun mas'uliyat.
		2. Muassasada joriy etilgan mehnat muhofazasi tizimi xodimlarning hayoti va sog'lig'ini real himoya qila olish darajasi uchun mas'uliyat.
		3. Xavflarni baholash xaritasida va ish o'rinlari attestatsiyasi natijalarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqiqiy holatga to'g'ri kelishi uchun mas'uliyat.
		4. Yillik chora-tadbirlar rejasini va smetasida ko'rsatilgan mablag'larning yetarli va asoslangan bo'lishi uchun mas'uliyat.
		5. Ish o'rinlari attestatsiyasi va xavflarni qayta baholash jarayonlarining belgilangan muddatlarda kechiktirmasdan o'tkazilishi uchun mas'uliyat.

		6. Xavflarni baholash va boshqarish usullarini muassasa xususiyatidan kelib chiqib mustaqil tanlash.
		7. Ish o'rinlari attestatsiyasi va ichki audit tekshiruvlarini o'tkazish grafisini mustaqil belgilash.
		8. Murakkab texnik ekspertiza yoki o'lchov ishlari uchun tashqi tashkilotlar va mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha rahbariyatga taklif kiritish.
B2.5 - Ishlab chiqarish jarayonlarida operativ nazorat o'tkazish	B2.01.5 - Bo'limlarda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi bo'yicha davriy tekshiruvlarni o'tkazish	Mehnat harakatlari:
		1. Tasdiqlangan oylik grafik asosida barcha bo'limlarda mehnat muhofazasi holatini tekshirish
		2. Ish joylarida xavfsizlik belgilari, evakuatsiya yo'laklari, to'siqlar va yoritish tizimlarining talablarga javob berishini ko'zdan kechirish
		3. Tekshiruv davomida aniqlangan barcha kamchilik va qoidabuzarliklarni qayd etish
		4. Oldingi tekshiruvlarda ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarning muddatida va sifatli bartaraf etilganligini joyiga chiqib qayta nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Ish joyidagi tartibsizliklar orasidan yashirin xavf manbalarini tezda ilg'ash
		Tekshiruv varaqalari asosida tizimli tekshiruv o'tkazish va hech bir muhim nuqtani o'tkazib yubormaslik
		Tekshiruv vaqtida ishchilar bilan ziddiyatsiz muloqot qilish, qoidabuzarlik sababini joyida aniqlash
		Aniqlangan muammolarni aniq texnik atamalar va standart bandlari bilan jurnalga yozish
		Bilimlar:
		Muassasada o'rnatilgan mehnat muhofazasi bo'yicha ma'muriy-jamoatchilik nazoratini yuritish talablari
		Ishlab chiqarish jarayonlariga oid texnologik reglamentlar, texnika xavfsizligi qoidalari va sanitariya me'yorlari
		Xavfsizlik belgilari va signal ranglarining davlat standarti
		Tekshiruv dalolatnomalarini rasmiylashtirish va qoidabuzarliklar uchun intizomiy javobgarlik turlari
		1. Bo'lim va uchastkalarda xodimlarning belgilangan maxsus kiyim, poyabzal va himoya vositalaridan to'liq va to'g'ri foydalanayotganini har kuni monitoring qilish
		2. Foydalanilayotgan himoya vositalarining yaroqlilik holatini, yirtilmaganligi, ifloslanmaganligi va himoya xususiyatini yo'qotmaganligini vizual ko'rikdan o'tkazish
		3. Maxsus himoya vositalarining davriy sinovdan o'tkazilganligi va tamg'alari mavjudligini tekshirish
		4. Omborxonada tomonidan xodimlarga himoya vositalarining tasdiqlangan me'yorlar asosida o'z vaqtida berilishi va shaxsiy varaqalar yuritilishini nazorat qilish

		<p>Ko'nikmalar:</p> <p>Eskirgan, yaroqsiz yoki standartda mos kelmaydigan himoya vositalarini vizual aniqlash va ularni ishlatishdan darhol chetlatish</p> <p>Xodimlarga murakkab himoya vositalarini to'g'ri taqish va sozlashni amalda ko'rsatib berish</p> <p>Ishchilarning antropometrik o'lchamlariga mos keladigan kiyim va poyabzallarni to'g'ri tanlashda va buyurtma berishda ishtirok etish</p> <p>Himoya vositalarining berilishini hisobga olish daftarlari va sinov dalolatnomalaridagi yozuvlarni to'g'ri tahlil qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Tarmoq xodimlari uchun maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalarini bepul berishning qonun bilan tasdiqlangan Namunaviy me'yorlari</p> <p>Shaxsiy himoya vositalarining turlari, himoya sinflari va markirovka qoidalari</p> <p>Maxsus kiyimlarni saqlash, yuvish, kimyoviy tozalash, dezinfeksiya qilish va ta'mirlash tartibi hamda muddatlari</p> <p>Elektr himoya vositalari va yuk ko'tarish moslamalarini davriy sinovdan o'tkazish muddatlari va yaroqsiz deb topish mezonlari</p>
	B2.03.5 - Uskunalar, mexanizmlar va himoya to'siqlarining texnik sozligini vizual va instrumental tekshirish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Ishlab chiqarish uskunalarning aylanuvchi va harakatlanuvchi qismlaridagi himoya g'illoflari va to'siqlarning mavjudligini ko'zdan kechirish</p> <p>2. Elektr uskunalarning yerga ulash konturining butunligini va kabel izolyatsiyalarining holatini vizual hamda maxsus indikatorlar yordamida tekshirish</p> <p>3. Uskunalaridagi xavfsizlik blokirovkasi, signalizatsiya tizimlari va "Shoshilinch to'xtatish" tugmalarining to'g'ri ishlashini sinab ko'rish</p> <p>4. Yuk ko'tarish mexanizmlari va bosim ostida ishlaydigan idishlarning texnik ko'rikdan o'tganligi haqidagi belgilar va pasportlarini tekshirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Texnik pasportlar va uskunaning tuzilish chizmalarini o'qiy olish, xavfli zonalarni chizma asosida aniqlash</p> <p>Soddalashtirilgan diagnostika asboblaridan birlamchi tekshiruvda foydalana olish</p> <p>Uskunaning ishlashidagi noodatiy shovqin, kuchli tebranish yoki kuygan hid orqali nosozlikni dastlabki bosqichda aniqlash.</p> <p>Himoya tizimlarining ataylab o'chirib qo'yilganligi yoki noto'g'ri sozlanganligini payqay olish</p>

		<p>Bilimlar:</p> <p>"Ishlab chiqarish uskunalari xavfsizligi" bo'yicha umumiy talablar va himoya to'siqlarining turlari hamda o'rnatish qoidalari</p> <p>Elektr qurilmalarini o'rnatish qoidalari va elektr xavfsizligi bo'yicha himoya choralarining texnik me'yorlari</p> <p>Yuk ko'tarish kranlari va bosim ostida ishlaydigan idishlardan xavfsiz foydalanish qoidalari</p> <p>Zamonaviy xavfsizlik tizimlari: Fotoelementlar, lazer to'siqlar va LOTO tizimi asoslari</p>
	<p>B2.04.5 - Aniqlangan qoidabuzarliklar bo'yicha dalolatnomalar tuzish va ishlarni to'xtatish bo'yicha ko'rsatma berish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Mehnat muhofazasi talablari buzilganligi va xodimlar hayotiga tahdid mavjudligi aniqlanganda texnologik jarayonni yoki uskuna ishini to'xtatish</p> <p>2. Aniqlangan qoidabuzarlik faktini tasdiqlovchi hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish</p> <p>3. Tarkibiy bo'lim rahbarlariga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari ko'rsatilgan yozma ko'rsatmalar taqdim etish</p> <p>4. Mehnat intizomini va xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzgan xodimlarga nisbatan intizomiy chora ko'rish bo'yicha rahbariyatga rasmiy taqdimnoma kiritish</p>
		<p>Ko'nikmalar:</p> <p>Ishlab chiqarish jarayonidagi xavf darajasini tahlil qilish va ishni to'xtatish yuzasidan asoslangan qaror qabul qilish</p> <p>Qoidabuzarlik holatlarini texnik vositalar yordamida fiksatsiya qilish va dalillarni tizimlashtirish</p> <p>Huquqiy va texnik terminologiyadan foydalangan holda savodli va aniq mazmundagi rasmiy hujjatlarni tuzish</p> <p>Nizoli vaziyatlarda me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanib tushuntirish ishlarini olib borish</p>
		<p>Bilimlar:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining xodimlarni intizomiy javobgarlikka tortish va ishdan chetlashtirishga oid moddalari</p> <p>Nazorat organlarining yozma ko'rsatmalari, dalolatnomalar va ma'lumotnomalarini rasmiylashtirish bo'yicha davlat standartlari</p> <p>Ishlab chiqarish jarayonlarini avariyasiz to'xtatish va qayta ishga tushirish bo'yicha texnologik reglamentlar</p> <p>Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi talablari buzilganda qo'llaniladigan ma'muriy choralar</p>
		<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p> <p>1. Ishlab chiqarish bo'limlarida o'tkazilgan tekshiruvlarning tasdiqlangan grafik va me'yoriy hujjatlarga mos ravishda to'liq hajmda bajarilishi uchun mas'uliyat.</p>

		<p>2. Texnik nosoz uskunalar va xavfsizlik to'siqlari mavjud bo'lmagan mexanizmlardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan mas'uliyat.</p> <p>3. Tuzilgan dalolatnoma, bildirishnoma va hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlarning aniqligi va faktlarga asoslanganligi bo'yicha mas'uliyat.</p> <p>4. Aniqlangan xavf manbalarini bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rilmaganligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar uchun mas'uliyat.</p> <p>5. Xodimlarning shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibiga rioya etishlarini doimiy nazorat qilish bo'yicha mas'uliyat.</p> <p>6. Xodimlar hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi avariya holati yoki qo'pol qoidabuzarliklar aniqlanganda, ishlarni zudlik bilan to'xtatib turish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>7. Muassasaning barcha ishlab chiqarish hududlari va ma'muriy xonalariga sutkaning istalgan vaqtida moneliksiz kirish va ko'zdan kechirish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>8. Tarkibiy bo'lim rahbarlari va mas'ul shaxslarga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan yozma ko'rsatmalar kiritish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>9. Texnik sinov muddati o'tgan, nosoz yoki markirovkasi bo'lmagan asbob-uskunalar va himoya vositalaridan foydalanishni taqiqlash bo'yicha mustaqillik.</p> <p>10. Mehnat muhofazasi qoidalarini buzgan, shuningdek, maxsus kiyim va poyabzalsiz bo'lgan shaxslarni ish joyidan chetlashtirishni talab qilish bo'yicha mustaqillik.</p>
<p>B3.5 - Profilaktika ishlari va baxtsiz hodisalarni tekshirish</p>	<p>B3.01.5 - Xodimlar bilan barcha turdagi xavfsizlik yo'riqnomalarini o'tkazish va rasmiylashtirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Muassasaga yangi qabul qilingan xodimlar, amaliyotchilar va mehmonlar bilan kirish yo'riqnomalarini o'tkazish hamda maxsus jurnalda qayd etish</p> <p>2. Bo'lim boshliqlari tomonidan ish joyidagi birlamchi, davriy va navbatdan tashqari yo'riqnomalar o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini nazorat qilish</p> <p>3. Texnologik jarayonlar o'zgarganda yoki yangi uskunalar joriy etilganda xavfsizlik yo'riqnomalari matnini qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash</p> <p>4. Xodimlarning mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarini og'zaki suhbat, test sinovlari yoki imtihon olish yo'li bilan tekshirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Murakkab texnik qoidalarni tushunarli tilda bayon qilish va auditoriya oldida nutq so'zlash</p> <p>Yo'riqnoma jurnallaridagi yozuvlarning to'g'riligini tizimli tekshirish</p>

		Xodimlar uchun eslatmalar, ko'rgazmali qurollar va video-qo'llanmalar tayyorlash
		Xodimning xavfsizlik qoidalarini shunchaki yodlaganini emas, balki mohiyatini tushunganini baholay olish
		Bilimlar:
		"Mehnat xavfsizligiga o'qitishni tashkil etish" davlat standarti (GOST 12.0.004) talablari va yo'riqnomalar turlari
		Xavfsizlik yo'riqnomalarini ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi nizomlar
		Kattalarni o'qitish asoslari va axborotni samarali yetkazish metodikasi
		Yo'riqnoma jurnallarini yuritish va saqlash bo'yicha ish yuritish qoidalari
	B3.02.5 - Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini xizmat tekshiruvdan o'tkazishda ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Baxtsiz hodisa yuz berganda vaziyatni o'rganish uchun voqea joyini ko'zdan kechirish va dalillarni fiksatsiya qilish
		2. Maxsus tekshirish komissiyasi tarkibida guvohlar va mansabdor shaxslardan tushuntirish xatlarini olish hamda so'roq qilish
		3. Hodisa sabablarini aniqlash va tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnomani belgilangan muddatda rasmiylashtirish
		4. O'xshash hodisalar takrorlanishining oldini olish uchun profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Guvohlardan psixologik bosimsiz suhbat davomida kerakli va haqqoniy ma'lumotlarni olish
		Voqea sabab-oqibat bog'liqligini mantiqiy tahlil qilish
		Dalolatnomani yuridik va texnik jihatdan savodli to'ldirish
		Voqea joyi chizmasini masshtab va shartli belgilarga rioya qilgan holda chizish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartibi
		Baxtsiz hodisalarning tasnifi va davlat organlariga xabar berish sxemasi
		Baxtsiz hodisalar sabablarini tahlil qilishning zamonaviy usullari
	Xodimlar salomatligiga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha muassasaning moddiy javobgarligi asoslari	

	B3.03.5 - Majburiy tibbiy ko'riklarning o'z vaqtida o'tkazilishini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Zararli va xavfli mehnat sharoitida ishlovchi xodimlarning kontingentini aniqlash va sanitar-gigiyenik xulosa olish
		2. Tibbiyot muassasasi bilan hamkorlikda xodimlarni davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazish reja-grafigini tuzish va tasdiqlash
		3. Tibbiy ko'rik yakunlari bo'yicha dalolatnomani tahlil qilish va sog'lig'ida qarshi ko'rsatma aniqlangan xodimlarni ishdan chetlashtirish choralarini ko'rish
		4. Kasb kasalligiga chalinish xavfi yuqori bo'lgan xodimlarni chuqurlashtirilgan tekshiruv va sog'lomlashtirishga yuborishni tashkillashtirish
		Ko'nikmalar:
		Ishlab chiqarish jarayoniga xalaqit bermagan holda xodimlarni guruhlariga ajratib tibbiy ko'rikka yuborishni rejalashtirish
		Tibbiy ma'lumotnomalar va xulosalarning haqiqiylikini tekshirish hamda soxta hujjatlarni aniqlash
		Tibbiyot muassasasi ma'muriyati bilan xizmat ko'rsatish sifati yuzasidan muzokaralar olib borish
		Tibbiy ko'rik muddatlarini nazorat qilish uchun elektron baza yuritish
	Bilimlar:	
	Sog'liqni saqlash vazirligining xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini belgilovchi amaldagi buyruqlari	
	Ishlab chiqarishdagi zararli omillarning inson organizmiga ta'siri va kasb kasalliklari belgilari	
	Dastlabki va davriy tibbiy ko'riklarning farqlari hamda o'tkazish muddatlari	
	Tibbiy ma'lumotlarning maxfiylikini saqlash va shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik talablari	
	B3.04.5 - Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish rejasini ishlab chiqish va mashg'ulotlar o'tkazish	Mehnat harakatlari:
		1. Binolar va inshootlar uchun odamlarni va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish rejalarini ishlab chiqish hamda ko'rinadigan joylarga joylashtirish
		2. Muassasa miqyosida yiliga kamida bir marta shartli yong'in yoki avariya holatlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish
		3. Boshlang'ich o't o'chirish vositalarining sozligi va to'liq butlanganligini har oy tekshirish
		4. Ko'ngilli yong'in o'chirish drujinasini shakllantirish va a'zolarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o'rgatish
Ko'nikmalar:		
Katta sonli xodimlarni evakuatsiya qilish jarayonini tartibli va xavfsiz boshqarish		

	<p>Barcha turdagi birlamchi o't o'chirish vositalaridan amalda foydalanishni ko'rsatib berish</p> <p>Binoning me'moriy tuzilishiga qarab eng xavfsiz va qisqa evakuatsiya yo'nalishlarini chizmada belgilash</p> <p>Jamoaviy jarohatlanish holatlarida jabrlanuvchilarni saralash va birlamchi yordamni tashkillashtirish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>"Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun va Yong'in xavfsizligi qoidalari talablari</p> <p>Evakuatsiya rejalarini tuzishdagi grafik talablar va shartli belgilar</p> <p>Yong'in o'chirish vositalarining turlari va ularni qo'llash qoidalari</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda inson psixologiyasi va ommaviy vahimaning oldini olish usullari</p>
Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Ishlab chiqarishda yuz bergan har qanday baxtsiz hodisa yoki jarohatlanish holatini yashirmaslik, ularni o'z vaqtida ro'yxatga olish va vakolatli organlarga xabar berish bo'yicha mas'uliyat.</p> <p>2. Tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoki salomatligi bo'yicha tibbiy qarshi ko'rsatmaga ega bo'lgan xodimlarning ishga qo'yilishi uchun mas'uliyat.</p> <p>3. O'tkazilgan xavfsizlik yo'riqnomalarining sifatli va tushunarli tarzda o'tkazilishi hamda jurnallarda to'g'ri rasmiylashtirilishi yuzasidan mas'uliyat.</p> <p>4. Evakuatsiya rejalarining realligi, yong'in o'chirish vositalarining sozligi va xodimlarning avariya vaziyatlarida to'g'ri harakat qilishga tayyorligi uchun mas'uliyat.</p> <p>5. Baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish jarayonida to'plangan dalillarning haqqoniyligi va buzib ko'rsatilmaligi bo'yicha mas'uliyat.</p> <p>6. Majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortgan yoki tibbiy xulosaga ko'ra ishlashga yaroqsiz deb topilgan xodimlarni ishga qo'yimaslik bo'yicha talabnoma kiritish yuzasidan mustaqillik.</p> <p>7. Rejalashtirilgan yong'in xavfsizligi yoki avariya mashg'ulotlarini o'tkazish vaqtida muassasa yoki ayrim bo'limlarning ish faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>8. Baxtsiz hodisani tekshirish jarayonida guvohlar va aloqador mansabdor shaxslardan yozma tushuntirish xatlari hamda kerakli texnik hujjatlarni talab qilib olish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>9. Xodimlarning bilimini sinash natijalariga ko'ra, qoniqarsiz baho olgan xodimlarni mustaqil ishlashga ruxsat bermaslik yuzasidan mustaqillik.</p>

Texnik va/yoki texnologik talab	lyuksometr, shovqin o'lchagich, shumometr, gaz analizatori, anemometr, pirometr, vibrometr, multimetr, kuchlanish indikator, lazerli masofa o'lchagich, shaxsiy kompyuter, noutbuk, printer, skaner, nusxa ko'chirish uskunasi, proyektor, ekran, MS Office dasturlar to'plami, AutoCAD dasturi, Visio dasturi, ratsiya, xizmat telefoni, foto-video kamera, birinchi tibbiy yordam qutichasi, elektron qonunchilik bazasi, xatarlarni baholash shablonlari, tekshiruv varaqalari.
--	--

Kasbning nomi:	Sog'liqni saqlash inspektori	
Mashg'ulot nomining kodi:	32570	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Korrupsiya holatlariga murossasiz bo'lish va qonun ustuvorligini ta'minlash. Vizual ko'rik davomida mayda kamchiliklar va yashirin qoidabuzarliklarni tez payqash qobiliyati. Tekshiriluvchi subyektlar bilan ziddiyatsiz, bosiq va rasmiy muloqot qila olish. Laboratoriya tahlillari va o'lchov natijalarini to'g'ri tahlil qilib, xulosa chiqarish. Bosim ostida va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Epidemiolog-shifokor yordamchisi
	6	Sanitar feldsher
	6	Sanitariya inspektori
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.5 - Nazorat obyektlarida davlat sanitariya-epidemiologik nazoratini amalga oshirish	D1.01.5 - Obyektlarda Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishini rejali va rejadan tashqari tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tasdiqlangan reja-grafik yoki kelib tushgan shikoyatlar asosida nazorat obyektiga qonuniy tartibda kirish va tekshiruvni boshlash
		2. Obyektning sanitariya holatini amaldagi SanPiN talablariga mosligini moddama-modda solishtirish
		3. Tadbirkorlik subyektini tekshirishdan oldin "Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi"ga belgilangan tartibda yozuv kiritish va guvohnomani taqdim etish
		4. Tekshiruv jarayonida aniqlangan sanitariya qoidabuzarliklarini joyida bartaraf etish imkoniyatlarini o'rganish va hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Tekshiruv davomida obyektivlikni saqlash va korrupsiogen holatlarga yo'l qo'ymaslik Normativ hujjatlardagi minglab talablar orasidan aynan shu obyektga tegishlisini tezda ajratish

		<p>Tekshiriluvchi shaxs bilan ziddiyatsiz muloqot qilish va o'z huquqiy vakolatlarini tushuntira olish</p> <p>Obyekt faoliyatidagi yashirin qoidabuzarliklarni payqash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni</p> <p>Tadbirkorlik subyektlarida tekshirishlarni o'tkazish tartibi va Biznes-ombudsman bilan kelishish qoidalari</p> <p>Turli sohalar uchun ixtisoslashgan Sanitariya qoidalari va normalari to'plami</p> <p>Tekshiruv turlari va ularni o'tkazish muddatlari</p>
	<p>D1.02.5 - Obyektlarning sanitariya holatini vizual baholash va xodimlarning tibbiy ko'rik daftarchalarini tekshirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Xonalarning tozaligi, shamollatish tizimi, yoritilganligi va chiqindilarning saqlanish holatini ko'zdan kechirish</p> <p>2. Obyekt xodimlarining shaxsiy tibbiy daftarchalarini yig'ib olish va ko'rik muddatlarini tekshirish</p> <p>3. Xodimlarning maxsus kiyim bilan ta'minlanganligi va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishini nazorat qilish</p> <p>4. Oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyolarning yaroqlilik muddatlari hamda saqlash sharoitlarini tekshirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Hujjatlardagi soxtalashtirish alomatlarini aniqlash</p> <p>Mahsulotning organoleptik xususiyatlariga qarab uning buzilganligini aniqlash</p> <p>Muzlatgich va omborxonalaridagi harorat-namlik rejimini termometr va gigrometr yordamida tekshirish</p> <p>Xodimlarning qo'l yuvish sifati va tirnoqlar tozaligini vizual baholash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi</p> <p>Dezinfeksiya vositalarini tayyorlash va ishlatish qoidalari</p> <p>Oziq-ovqat mahsulotlarini markirovka qilish va saqlash bo'yicha davlat standartlari</p> <p>Soxta tibbiy muhrlar va yozuvlarni haqiqiydan ajratish qoidalari</p>
	<p>D1.03.5 - Atrof-muhit omillarini instrumental o'lchash va laboratoriya tahlili uchun namunalar olish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Tekshiruv davomida shubhali ko'ringan suv, oziq-ovqat, tuproq yoki havodek obyektlardan laboratoriya tahlili uchun namunalar olish</p> <p>2. Ish joylaridagi fizik omillarni maxsus asboblarda yordamida o'lchash</p> <p>3. Olingan namunalarni steril idishlarga joylashtirish, muhrlash va namuna olish dalolatnomasini tuzib, laboratoriyaga yetkazish</p>

		4. Instrumental o'lchov natijalarini ruxsat etilgan me'yorlar bilan solishtirish va xulosa tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		O'lchov asboblarini to'g'ri kalibrlash va ishlatish
		Sterillik qoidalariga rioya qilgan holda, namunani ikkilamchi ifloslantirmasdan olish
		Namunalarni kodlash va laboratoriyaga anonim tarzda yuborish
		Laboratoriya protokollaridagi murakkab kimyoviy va bakteriologik ko'rsatkichlarni tahlil qilish
		Bilimlar:
		Namuna olish bo'yicha Davlat standartlari qancha miqdorda va qanday usulda olish qoidalari
		Ruxsat etilgan konsentratsiyalar va ruxsat etilgan darajalar me'yorlari
		O'lchov asboblarining ishlash prinsiplari va xatolik darajalari
		Namunalarni tashish qoidalari
	D1.04.5 - Yangi qurilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan obyektlarning loyiha hujjatlarini sanitariya talablariga mosligini ekspertiza qilishda qatnashish	Mehnat harakatlari:
		1. Qurilish loyihalarining bosh rejasi, texnologik chizmalari va tushuntirish xatlarini sanitariya normalariga mosligini o'rganib chiqish
		2. Obyektning joylashuvi va sanitar-himoya zonalariga rioya etilganligini tekshirish
		3. Ventilyatsiya, kanalizatsiya, suv ta'minoti va yoritish tizimlarining loyihaviy quvvatlarini hisob-kitob qilish va baholash
		4. Loyiha bo'yicha ijobiy yoki salbiy sanitariya-ekspertiza xulosasini tayyorlash va imzolash
		Ko'nikmalar:
		Murakkab muhandislik va arxitektura chizmalarini o'qish
		Loyihadagi kelajakda sanitariya muammosini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xatolarni oldindan ko'ra bilish
		Sanitariya talablarini quruvchi va loyihachilarga texnik tilda asoslab berish
		Elektron shakldagi loyihalar bilan ishlash
		Bilimlar:
		Shaharsozlik normalari va qoidalarining sanitariya qismlari
		Sanitar-himoya zonalarini o'lchamlari
		Turli toifadagi binolarga qo'yiladigan maxsus gigiyenik talablar
	Loyiha hujjatlarini o'qish va shartli belgilarni tushunish	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Nazorat obyektlarida o'tkazilgan sanitariya tekshiruvlarining xolisligi, aniqligi va korrupsiyadan xoli ekanligi uchun mas'uliyat.

		<p>2. Laboratoriya tahlili uchun olingan namunalarning sterilligi va tashish qoidalariga rioya qilinganligi yuzasidan mas'uliyat.</p> <p>3. Yangi qurilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan obyektlarning loyiha hujjatlariga berilgan ekspertiza xulosalarining amaldagi me'yorlarga to'liq mosligi bo'yicha mas'uliyat.</p> <p>4. Tekshiruv davomida tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlarini buzmaslik va tekshirishlarni ro'yxatga olish tartibiga qat'iy rioya qilish bo'yicha mas'uliyat.</p> <p>5. Xizmat guvohnomasini ko'rsatgan holda nazorat ostidagi har qanday obyektga to'siqsiz kirish va sanitariya holatini o'rganish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>6. Tekshiruv jarayonida obyekt ma'muriyatidan zarur bo'lgan tibbiy daftarchalar, texnologik kartalar va boshqa hujjatlarni talab qilib olish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>7. Sanitariya-gigiyena talablariga javob berishini aniqlash maqsadida mahsulot va xomashyo namunalarini laboratoriya tahlili uchun tanlab olish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>8. Sanitariya normalariga zid ravishda tayyorlangan loyiha hujjatlarini tasdiqlashni rad etish va qayta ishlashga qaytarish yuzasidan mustaqillik.</p> <p>9. Obyektida aniqlangan qoidabuzarliklar bartaraf etilmaguncha, foydalanishga ruxsat bermaslik yoki faoliyatini vaqtincha to'xtatish haqida taklif kiritish bo'yicha mustaqillik.</p>
<p>D2.5 - Epidemiologik monitoring va yuqumli kasalliklar profilaktikasi</p>	<p>D2.01.5 - Yuqumli va parazitari kasalliklar aniqlangan o'choqlarda epidemiologik surishtiruv o'tkazish va shoshilinch xabarnomalar bilan ishlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Tibbiyot muassasalaridan kelib tushgan xabarnoma asosida 24 soat ichida kasallik o'chog'iga chiqish va tekshiruvni boshlash</p> <p>2. Bemor bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni laboratoriya tekshiruvidan o'tkazishni tashkillashtirish</p> <p>3. Kasallikning kelib chiqish manbai va yuqish yo'llarini aniqlash uchun epidemiologik anamnez yig'ish</p> <p>4. Epidemik o'choqni chegaralash va kasallik tarqalishini to'xtatish bo'yicha birlamchi chora-tadbirlar rejasini tuzish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Bemor va uning yaqinlari bilan psixologik to'siqlarsiz suhbatlashib, kasallik sababini aniqlash</p> <p>Muloqotdagi shaxslar ro'yxatini to'liq shakllantirish va ularni tibbiy nazoratga olish</p> <p>Kasallikning tarqalish ehtimolini geografik jihatdan tahlil qilish</p> <p>Tezkor vaziyatlarda vahimaga tushmasdan, aniq algoritm asosida qaror qabul qilish</p>

		<p>Bilimlar:</p> <p>Yuqumli kasalliklarning inkubatsiya davrlari va yuqish mexanizmlari</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining yuqumli kasalliklarni ro'yxatga olish va hisobotini yuritish bo'yicha buyruqlari</p> <p>Epidemiologik surishtiruv xaritasini to'ldirish tartibi va bemor ma'lumotlarining maxfiyligi</p> <p>O'ta xavfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda harakat qilish sxemasi va xabar berish tartibi</p>
	D2.02.5 - Yuqumli kasalliklar o'chog'ida dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya tadbirlarining sifati va samaradorligini nazorat qilish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Kasallik o'chog'ida yakuniy dezinfeksiya ishlari o'tkazilgandan so'ng, uning sifati tekshirish uchun sirtlardan surtmalar olish</p> <p>2. Dezinfeksiya brigadasi tomonidan kimyoviy eritmalarning to'g'ri tayyorlanishi va sarf me'yorlariga rioya etilishini nazorat qilish</p> <p>3. Obyektlarda hasharotlar va kemiruvchilar mavjudligini aniqlash uchun qopqonlar yoki vizual kuzatuv usulini qo'llash</p> <p>4. Profilaktik dezinfeksiya ishlari bajarilganligi to'g'risidagi dalolatnomalarni va bajarilgan ish hajmini tasdiqlash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Kimyoviy eritmaning faolligini ekspress-testlar yoki titrlash usuli bilan aniqlash</p> <p>Dezinfeksiya sifati qoniqarsiz bo'lganda, qayta ishlashni tashkillashtirish va talab qilish</p> <p>Zaharli xo'raklarni xavfsiz joylashtirish joylarini to'g'ri tanlash</p> <p>Maxsus purkagich va generator uskunalarning sozligini tekshirish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Zamonaviy dezinfeksiya vositalarining turlari va ularning ta'sir doirasi</p> <p>Kimyoviy eritmalarning foizini hisoblash va ishchi eritmalarni tayyorlash qoidalari</p> <p>Zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlashda texnika xavfsizligi va shaxsiy himoya qoidalari</p> <p>Hasharotlar va kemiruvchilarning biologik xususiyatlari hamda ko'payish joylari</p>
		<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Emlash punktlarida vaksinalarning saqlanish haroratini va muzlatgichlarning texnik holatini muntazam tekshirish</p> <p>2. Tibbiy muassasada bolalarni emlash rejalarining bajarilishi va emlash bilan qamrab olish ko'rsatkichlarini tahlil qilish</p>

D2.03.5 - Milliy emlash kalendariga asosan profilaktik emlash jarayonlarini va "Sovuqlik zanjiri" tizimiga rioya etilishini monitoring qilish	3. Vaksina flakonlaridagi termindikatorlar holatini vizual ko'zdan kechirish va yaroqsiz vaksinalarni utilizatsiya qilishni nazoratlash	
	4. Emlashdan keyingi asoratlar ro'yxatga olingan holatlarni o'rganish va sabablarini tahlil qilish	
	Ko'nikmalar:	
	Muzlatgich ichidagi haroratni qayd etuvchi jurnallar va termoregistrator ma'lumotlarini tahlil qilish	
	Muzlatib qo'yilgan vaksinalarni "chayqatish testi" orqali aniqlash	
	Emlash kartotekasi va hisobotlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash	
	Tibbiyot xodimlariga vaksinalarni muzlatgich tokchalariga to'g'ri joylashtirishni amalda ko'rsatib berish	
	Bilimlar:	
	O'zbekiston Respublikasi Milliy emlash kalendar	
	"Sovuqlik zanjiri" tizimi talablari va vaksinalarni tashish hamda saqlash qoidalari	
	Xavfsiz immunizatsiya amaliyoti va ishlatilgan shpritslarni "Xavfsiz quti"larda yo'q qilish tartibi	
	Vaksinalarning turlari va ularni qo'llashga qarshi ko'rsatmalar	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Yuqumli kasallik o'chog'iga belgilangan vaqt ichida yetib borish va epidemik surishtiruvni to'liq hajmda o'tkazish bo'yicha mas'uliyat.
		2. "Sovuqlik zanjiri" qoidalariga rioya etilmasligi oqibatida vaksinalarning yaroqsiz holga kelishi va moddiy zarar yetkazilishi yuzasidan mas'uliyat.
		3. Yuqumli kasallik o'choqlarida o'tkazilgan yakuniy dezinfeksiya ishlarining sifati va laboratoriya tahlillari natijalarining haqqoniyligi uchun mas'uliyat.
4. Aholi orasida ommaviy zaharlanish yoki epidemiya xavfi tug'ilganda rahbariyatni va tegishli organlarni kechiktirmasdan xabardor qilish bo'yicha mas'uliyat.		
5. Saqlash sharoiti buzilgan, yaroqlilik muddati o'tgan yoki termindikatorlari o'zgargan vaksinalarni ishlatishni taqiqlash va utilizatsiya qilish bo'yicha mustaqillik.		
6. Yuqumli kasallik tashxisi qo'yilgan yoki kasallik tashuvchi deb topilgan shaxslarni ishdan, o'qishdan va jamoat joylaridan chetlashtirishni talab qilish bo'yicha mustaqillik.		
7. Sifatsiz o'tkazilgan yoki kimyoviy eritma konsentratsiyasi talabga javob bermagan dezinfeksiya ishlarini qabul qilmaslik va qaytadan o'tkazishni buyurish yuzasidan mustaqillik.		
8. Kasallik sabablarini aniqlash maqsadida bemorning yashash joyi, ish joyi va ovqatlanish joylaridan		

		laboratoriya uchun namunalar olish bo'yicha mustaqillik.
		9. Emlashdan bosh tortgan yoki emlash kalendarini buzgan mas'ul tibbiyot xodimlariga nisbatan intizomiy chora ko'rish bo'yicha taklif kiritish yuzasidan mustaqillik.
D3.5 - Ma'muriy amaliyot va huquqiy choralar ko'rish	D3.01.5 - Tekshiruv natijalari bo'yicha sanitariya- epidemiologik tekshiruv dalolatnomalarini tuzish	Mehnat harakatlari:
		1. Tekshiruv jarayonida aniqlangan barcha kamchiliklarni va buzilgan sanitariya me'yorlarini batafsil bayon qilgan holda tekshirish dalolatnomasini yozma ravishda tuzish
		2. Dalolatnomada ko'rsatilgan har bir qoidabuzarlikni amaldagi SanPiN raqami va bandi bilan asoslab ko'rsatish
		3. Obyekt rahbariga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq muddatlar belgilangan majburiy ko'rsatmalarni taqdim etish
		4. Tuzilgan dalolatnomani obyekt rahbari yoki mas'ul xodimi bilan birgalikda imzolash va bir nusxasini tilxat orqali topshirish
		Ko'nikmalar:
		Aniqlangan kamchiliklarni aniq texnik va yuridik atamalar bilan ifodalash
		Qoidabuzarlikning og'irlik darajasiga qarab, bartaraf etish uchun real va mantiqiy muddatlarni belgilash
		Obyekt rahbari dalolatnomaga imzo chekishdan bosh tortganda, guvohlar ishtirokida rasmiylashtirish
		Tekshiruv natijalarini "Yagona davlat nazorati" elektron tizimiga kiritish
	Bilimlar:	
	Davlat tilida ish yuritish qoidalari va rasmiy hujjatlar yozish uslubi	
	Sanitariya qoidalari va normalarining huquqiy maqomi va ularning bandlari	
	Tekshirish dalolatnomasining namunaviy shakli va uni to'ldirishga qo'yiladigan talablar	
	Tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik asoslari	
	D3.02.5 - Aniqlangan qonunbuzarliklar yuzasidan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirish va jarima solish to'g'risida qaror loyahasini tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Sanitariya qonunchiligini buzgan mansabdor shaxslar yoki fuqarolarga nisbatan joyida "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma" rasmiylashtirish
	2. Huquqbuzarga uning huquq va majburiyatlarini tushuntirish hamda tushuntirish xati yozib berishini talab qilish	
	3. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks moddalariga asosan jarima miqdorini to'g'ri belgilash bo'yicha qaror loyahasini tayyorlash	

		<p>4. Rasmiylashtirilgan ma'muriy ishlarni qonuniy ko'rib chiqish uchun Bosh davlat sanitariya vrachiga yoki sud organlariga taqdim etish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Huquqbuzarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asosida ma'lumotlarni to'g'ri kiritish</p> <p>Qaysi holatda ogohlantirish berish va qaysi holatda jarima qo'llash kerakligini to'g'ri farqlash</p> <p>Huquqbuzar bilan ziddiyatga bormasdan, unga qo'llanilayotgan choraning qonuniy asoslarini bosiqlik bilan tushuntirish</p> <p>Elektron ma'muriy ish yuritish tizimi orqali jarimalarni rasmiylashtirish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining tegishli moddolari</p> <p>Ma'muriy bayonnomani to'ldirish tartibi va uning yuridik kuchi</p> <p>Bazaviy hisoblash miqdorining amaldagi qiymati va jarimalarni hisoblash tartibi</p> <p>Huquqbuzarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar</p>
	<p>D3.03.5 - Aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'diruvchi holatlar aniqlanganda obyekt faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish bo'yicha ko'rsatma berish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Ommaviy zaharlanish yoki kasallik tarqalish xavfi aniqlanganda obyekt ishini zudlik bilan to'xtatish haqida qaror qabul qilish</p> <p>2. Foydalanishi taqiqlangan uskunalar, omborxonalar yoki ishlab chiqarish sexlari eshiklarini muhrlash</p> <p>3. Obyekt rahbariga faoliyatni to'xtatish to'g'risidagi Bosh davlat sanitariya vrachining qarorini topshirish</p> <p>4. Muhrlangan obyektlarning butunligini va noqonuniy ochib yuborilmaganligini davriy monitoring qilish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Xavf darajasini to'g'ri baholash: qachon shunchaki jarima yetarli, qachon esa yopish shart ekanligini hal qilish</p> <p>Muhr o'rnatish texnikasini bilish</p> <p>Rahbariyat va jamoatchilik bosimi ostida ham prinsipial qaror qabul qila olish</p> <p>Sud jarayonlarida obyektни yopish zarurligini dalillar bilan isbotlab berish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Obyekt faoliyatini to'xtatib turishga asos bo'luvchi o'ta xavfli holatlar ro'yxati</p> <p>Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini to'xtatishning sud tartibi va istisno holatlari</p> <p>Muhrlash tartibi va muhrni buzganlik uchun javobgarlik choralari</p>

		Elektr, suv va gaz ta'minoti korxonalariga obyektning tarmoqdan uzish bo'yicha xabarnoma yuborish tartibi
	D3.04.5 - Jismoniy va yuridik shaxslarning sanitariya masalalari bo'yicha shikoyat va arizalarini ko'rib chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. Fuqarolardan tushgan arizalar bo'yicha joyiga chiqib o'rganish o'tkazish
		2. Shikoyatda keltirilgan vajlarni tasdiqlash yoki rad etish uchun instrumental o'lchovlar va guvohlar bilan suhbat o'tkazish
		3. Murojaat muallifiga qonunda belgilangan muddatlarda rasmiy yozma javob xati tayyorlash va yuborish
		4. Takroriy murojaatlar kelib tushganda, masalani komissiya ishtirokida chuqurlashtirilgan holda ko'rib chiqish
		Ko'nikmalar:
		Nizoli vaziyatlarda xolis hakam bo'lish va faqat faktlarga tayanish
		Hissiyotga berilgan shikoyat matnidan asosiy muammoni ajratib olish
		Yozma javob xatlarini barcha yuridik va imlo qoidalariga rioya qilgan holda tuzish
		Murojaatchi bilan diplomatiyani saqlagan holda, lekin qonuniy tilda muloqot qilish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni
		Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari va tartibi
		Aholi yashash joylarida shovqin, tebranish va noxush hidlar bo'yicha gigiyenik normalar
	Anonim murojaatlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tuzilgan dalolatnoma va ma'muriy bayonnomalarning qonuniy talablarga to'liq javob berishi hamda yuridik kuchga ega bo'lishi yuzasidan mas'uliyat.
		2. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan muddatlarda, xolisona va sifatli ko'rib chiqilishi bo'yicha mas'uliyat.
		3. Aholi salomatligiga jiddiy xavf mavjud bo'lgan obyektlar faoliyatini o'z vaqtida to'xtatmaslik oqibatida kelib chiqadigan zararlar uchun mas'uliyat.
		4. Tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarga nisbatan asossiz jarima qo'llash yoki noto'g'ri ma'muriy chora ko'rish oqibatlari uchun mas'uliyat.
		5. Ma'muriy ish yuritish jarayonidagi rasmiy hujjatlarning saqlanishi va ma'lumotlarning maxfiyligi yuzasidan mas'uliyat.

		<p>6. Sanitariya qonunchiligini buzgan mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan joyida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>7. Inson hayotiga bevosita xavf tug'diruvchi holatlar aniqlanganda, yuqori turuvchi rahbarning alohida buyrug'ini kutmasdan, obyekt faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish va muhrlash bo'yicha mustaqillik.</p> <p>8. Aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan yozma ko'rsatmalar berish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>9. Ma'muriy ishlar bo'yicha sud jarayonlarida ishtirok etish va kiritilgan da'volarni himoya qilish bo'yicha mustaqillik.</p> <p>10. Murojaatlarni o'rganish jarayonida tomonlarning noqonuniy iltimoslarini rad etish va faqat faktlarga asoslangan qaror qabul qilish yuzasidan mustaqillik.</p>
<p>Texnik va/yoki texnologik talab</p>		<p>Lyuksometr, termogigrometr, raqamli termometr, pirometr, shovqin o'lchagich, anemometr, PH-metr, nitrat o'lchagich, ultrabinafsha chiroq, lazerli masofa o'lchagich, elektron tarozi, steril konteynerlar, probirkalar, tamponlar, steril shpatellar, metall pinsetlar, termokonteynerlar, muzlatgich elementlari, xavfsiz qutilar, xizmat plansheti, noutbuk, portativ printer, foto-video kamera, GPS-navigator, MS Office dasturlar to'plami, "Yagona davlat nazorati" axborot tizimi, tibbiy xalat, bir martalik qo'lqoplar, tibbiy niqob, respirator, himoya ko'zoynagi, maxsus bosh kiyim, bahilalar, bir martalik himoya kombinezonlari, elektron qonunchilik bazasi, Sanitariya qoidalari va normalari to'plamlari, tekshiruv varaqalari.</p>

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 23-yanvar 2026-yildagi 1-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0085-son xulosa, 24.02.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 13.02.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	13.02.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot haqida ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash vazirligi

(tashkilot nomi)

Vazirning birinchi o'rinbosari

Boboyev Alisher Shukrullayevich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi fan ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i	Ismailov O'ktam Safayevich
2.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri	Azimov Aziz Muxamedjanovich
3.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri	Kamilov Xaydar Pazilovich
4.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Yakubov Erkin Amongeldiyevich
5.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti assistenti	Nazarova Nigina Otabek qizi
6.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Atakov Sarvar Sultanbayevich
7.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Nuritdinova Nigora Batirovna
8.	Toshkent farmatsevtika instituti o'qituvchisi	Sultanova Rano Khakimovna
9.	Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi dotsenti	Xaydarova Ravshankhon Turg'unovna
10.	Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi dotsenti	Rakhimov Azamat Ulugovich



**SOGʻLIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART

**JAMOAT SALOMATLIGI VA MEHNAT XAVFSIZLIGINI
TAʼMINLASH BOʻYICHA MUTAXASSISLAR**